



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**KASBIY TA'LIM FAKULTETI
TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI KAFEDRASI**

“Himoyaga tavsiya etilsin”
Kasbiy ta'lim fakulteti
dekani: _____ dots. T.Fayziyev
“ _____ ” _____ 2014 yil

Shodieva Mohira Husanovnaning

5140700 — Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

**“7-SINF TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA BADIY ASARLARGA
ILLYUSTRATSIYALAR BAJARISH”**
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

T.Astanov

QARSHI – 2014

MUNDARIJA:

Kirish	
I BOB. “Badiiy asarga illyustrasiya bajarish”ning o’quv jarayonida o’ziga xosligi	
1.1.Dekorativ kompozitsiya: «To’maris» afsonasi asosida rasm ishlash.....	
1.2.Illyustratsiya ishlashda kompozitsiyaning roli va rangshunoslik.....	
1.3.Grafikada illyustratsiya bajarish.....	
II-BOB. Kitob grafika kompozitsiyasida illyustratsiya bajarishning amaliy–ijodiy asoslari	
2.1 Kitob grafikasi kompozitsiyasiga illyustratsiya bajarish.....	
2.2.“Badiiy asarga illyustrasiya bajarish”ning bir soatli dars ishlanmasi.....	
Xulosa	
Adabiyotlar ro’yhati	
Illyustratsiyalar	

KIRISH

O'zbekistonda xalq ta'limi tizimini «Ta'lim to'g'risidagi qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ga mos ravishla qayta isloh qilish, shubhasiz, ta'lim tizimini rivojlangan, demokratik mamlakatlardagi ta'lim tizimi yutuqlari bilan boyitish, uyg'unlashtirish orqali Respublikamizni jahon hamjamiyati sari yuksak taraqqiy etishga imkon berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'lim haqida quyidagi so'zlarni ta'kidlab o'tgan edi.

«Oliy ma'lumotli, madaniyatli hamda professional jihatdan yetuk shaxsgina iqtisodiy erkin bo'lishi, demokratik va tub iqtisodiy o'zgarishlarning ishonchli tayanchi bo'lishi mumkin. Ushbu haqiqatni tushuntirish xalqni ma'naviy va madaniy yaxshilash, ta'lim-tarbiyaning butun tizimini yaxshilash jarayonining zamirida yotishi darkor»..

Shularga ko'ra, maktab o'quv fanlari asosiy e'tiborni o'zlarining o'qitish texnologiyalarni qayta ko'rib chiqish va uni yangi ta'lim tizimiga olib kirishiga qaratilmoqda. Yana maktab o'quv fanlari o'z sohasi bo'yicha yangi Davlat ta'lim standarti asosidagi o'quv dasturini, darsligini va o'quv metodik qo'llanmalarini ham yaratmoqdalarki, bular vositasida bugungi maktab o'quv fanlari yangi pedagogik tizim va texnologiya asosida o'qitishga jadal kirib borilmoqda.

Maktabda tasviriy san'at o'quv fani bo'yicha ham davlat ta'limi standarti asosida uning o'quv dasturi va o'qitish kontsepsiyasi ishlab chiqildi .

Mavzuning dolzarbligi. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasi va uni yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish borasida maxsus kuzatuvlar tajribalar va tajribakor metodist tasviriy san'at o'qituvchilarining ish tajribalari o'rganilib, ulardan tegishli ilmiy xulosalar chiqarildi.

Maktabda tasviriy san'at darslarida “Badiiy asarga illiustrasiya bajarishda o'quvchilarning o'zlashtirishda passivligini ko'tarib, ularni qiziqishini , shijoat, tushunchasini kengaytirib,tasvirlash hamda ijodiy faoliyatini o'stirish maqsadida bu mavzuda izlanishlar olib bordim.

Respublika ta'lim istiqbollarini belgilashda quyidagi tamoyillar asos qilib olingan.

- ta'lim-tarbiyaning insonparvarligi hamda demokratiyaviyligi;
- davlat ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi;
- ta'limda umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarning ustivorligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida inson uchun uning millati, e'tiqodi, dinidan qat'iy nazar ta'lim olishi imkoniyati yaratilganligi;
- tayanch ta'limning majburiyligi;
- ta'lim standartlarining tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv bo'lishga asoslanganligi;
- ta'lim muassasalarida chet tillarni jiddiy o'rganish, xalqimiz tarixi, madaniyati va an'analari, jahon madaniyati va tarixi sohasida bilim olish uchun sharoitlar yaratilganligi;
- ta'lim muassasalarining turli siyosiy partiyalar va ijtimoiy siyosiy harakatlarning ta'siridan holiligi; Amaldagi qonunlar doirasida barcha shaklda ta'lim muassasalarining teng huquqligi va hokazolar.

Respublikamizda ro'y berayotgan o'zgarishlarda barcha sohalardagi kabi bo'lajak tasviriy san'at pedagoglarining zimmasiga ham o'ta dolzarb muammoni yuklaydi. Tasviriy san'at orqali inson hayotida, uning axloqiy tarbiyasiga ta'sir etuvchi muhim omillardan tabiatni sevish, olloh in'om etgan jamiki rang-barang borliqni his qilish, san'at ob'ektidan hissiy lazzatlanish xususiyatlarini shakllantirish, eng yuksak fazilatli, axloqiy pok, iymon va e'tiqodli, halol va sofdil, mehribon bo'lish kabi insoniy fazilatlarni tarkib toptirishda tasviriy san'atni miniatyura uslubida panno eskizini milliy qadriyat sifatida o'rgatish, uning pedagogik asoslarini ochib berish bugungi kunda rassom pedagoglarining dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Mazkur ishimizga oid ko'plab izlanishlar olib borilgan.

Mavzuning o'rganilishi. Yosh avlodga yaxshi ta'lim-tarbiya berish, ularga tasviriy san'atning miniatyura uslubida "Badiiy asarga illyustrasiya bajarish", miniatyuraning afzalligi, ijodiy maxsuldorligi, foydasi, rassom va

rassom pedagoglarining fazilatlari to'g'risida bir qator ijod namoyandalari o'z asarlarida bebaho fikrlarni bayon etganlar. 1970-yillarda O'zbekistonning bir qator rassomlari va xalq ustalari ushbu ajoyib san'at turini qayta tiklashga bel bog'ladilar. Ular orasida taniqli o'zbek musavviri Chingiz Axmarov, o'sha paytda yosh va navqiron san'atkorlar Niyozali Holmatov, Shomahmud Muhammadjonov, Abduvosit Qambarov, G'ayrat Kamolov, Munira Sotiboldieva va boshqalar bor edi. Ijodiy ustaxona tashkil etilib, unga o'z asarlarida Sharq miniaturasining ko'p asrlik an'alarini izchillik bilan rivojlantirib kelayotgan rassom Chingiz Axmarov rahbarlik qildi. Mutaxassislarning aniqlashicha Sharqdagi tosh qog'ozdan ishlangan buyumlarga naqsh solish usuli Fedoskino, Palex, Mstera, Holuy markazlariga mansub miniatura san'atiga o'xshab ketar ekan. Sanamnavislik usullarini meros qilib olgan rus miniatura ustalari qo'llaydigan badiiy ifodalash vositalarining negizi sifatidagi jo'shqin rangtasvir usuli ko'p jihatdan Sharqning o'rta asrlardagi miniatyurachilari tajribasini eslatadi. Palex naqshlar bilan tanishish O'zbekistonlik ustalarni O'rta Sharq miniaturasining mumtoz namunalariga murojaat etishga undadi. Miniatyura rangtasvirining an'anaviy badiiy asarga illyustrasiya ishlash san'atiga kirib kelishi, O'zbekiston rassomlarining ijodiy amaliyotida san'atning yangi turi - lakli miniatyuraning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Lakli miniatura san'atining shakllanish jarayoni murakkab kechdi. O'tgan 20 yil mobaynida ijodning ushbu turi rivojida ikkita tamoyil ayon bo'ldi. Birinchisi - miniatura rangtasviri badiiy merosiga ijodiy yondashgan holda va naqshin syujetda zamonaviy voqelikni aks ettirish bo'lsa, ikkinchisi - mumtoz miniatyuraning badiiy qonun-qoidalariga qat'iy rioya qilishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ta'lim muassasalarida "Badiiy asarga illyustrasiya bajarish" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi o'z oldiga: har tomonlama ma'naviy, madaniy saviyada shakllangan o'quvchini tayyorlash, unga estetika, san'at va realistik tushunchalarni berish va miniatyura uslubida badiiy asarga illyustrasiy ishlash ko'nikmalarini singdirish maqsadini qo'ygan holda faoliyat ko'rsatadi.

Yuqoridagi ancha murakkab va mas'uliyatli maqsaddan kelib chiqilgan holda ushbu bitiruv malakaviy ishi o'z oldiga:

- O'qituvchi-o'quvchilarga tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarni ko'zatish, "Miniatyura uslubida badiiy asarga illyustrasiya bajarish turli shakl va hajmda ishlash, yaxlit holda ko'rish, ularni ilmiy asosda idrok etishga o'rgatish;

- O'quvchilarni badiiy didini, estetik tushunchasini, materialistik va idealistik dunyoqarashini, go'zallik olamini va ijodiy iste'dodini, ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalash;

- "Badiiy asarga illyustrasiya bajarish"ni bilish, ularni ijodkorlik asosida bajarish bo'yicha malaka-ko'nikmalar hosil qilish;

- tasviriy san'at olamidagi miniatyura uslubida ishlangan san'at asarlarini ko'ra bilishni, idroq etishni, tushunib, ularni past saviyadagi, qalbaki rasmlardan farqlay olish ko'nikmalarini berish;

- o'quvchilarga miniatyura uslubida Badiiy asarga illyustrasiya bajarish ni pedagogik texnologiyasi orqali o'rgatishning eng oson, qisqa, ilmiy asosda bo'lishining zamonaviy uslubi, didaktik printsiplari bilan tanishtirish kabi mazmunga ega bo'lgan vazifalarni qo'yadi.

Ilmiy, amaliy, ijodiy ahamiyati. Miniatyura uslubida "Badiiy asarga illyustrasiya bajarish" orqali bilishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, badiiy asarga illyustrasiya bajarish tushunchasi va mazmunini yoritish haqida saboq berish bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida hal etilishini talab etayotgan muhim masaladir. Shuningdek, ushbu mavzuni yoritishda yangi pedagogik texnologiyaning o'rni va ahamiyati, ilg'or texnologiyalar va pedagogik texnologiyalardan foydalanib yoritish avvalo, o'quvchi ongida miniatyurada

uslubida badiiy asarga illyustrasiya ishlash haqidagi tasavvurlar shakllanishi va yangi ma'lumotlar bilan boyitilishiga keng imkon beradi, miniatyura janrida rasm chizish san'atining sirli qirralarini o'rganish, ularni real ko'rinishda tasvirlash va o'rganishda, kerak bo'lsa qiziqishda ilmiy, amaliy, ijodiy ahamiyatga ega.

Mavzuning predmeti. Miniatyura uslubida "Badiiy asarga illyustrasiya bajarish"ni metodikasi va uning dars ishlanmasi.

Mavzuning ob'ekti. Miniatyura uslubida «To'maris» afsonasi asosida ishlangan illyustrasiyalar

Mavzuning malakaviy yangiligi.

Miniatyura uslubida «To'maris» afsonasi asosida ishlangan illyustrasiyalar tasvirlashning yangicha yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan metodikasi;

“Miniatyura uslubida badiiy asarga illyustrasiya ishlash” metodikasining ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni;

“Miniatyura uslubida badiiy asarga illyustrasiya bajarish ” metodikasining ta'lim jarayonlarida amalda joriy etilishi ushbu bitiruv malakaviy ishining yangiligidir.

1.BOB. “Badiiy asarga illyustrasiya bajarish”ning o’quv jarayonida o’ziga xosligi

Ma’lumki san’atning turlari nihoyatda ko’p bo’lib, ularning eng asosiy sifati adabiyot, musiqa, kino, teatr, me’morchilik, amaliy bezak, yirik televideniya, tasviriy san’at kabilarni alohida e’tirof etish mumkin.

«Tasviriy» atamasi tasvirlash so’zidan olingan bo’lib, unda turli material, bo’yoq, tosh, gips, yogoch, shuningdek, boshqa badiiy va turdosh materiallar yordamida har xil timsollarni va narsalarning rasmi, haykalini ifodalash tushiniladi.

Tasviriy san’at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, xalqlar tarixini o’rganishga xizmat qiladi. Tasviriy san’atni paydo bo’lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar tevarak atrofda sodir bo’layotgan voqealarni, odam va hayvonlarning tasvirini toshlarga chizib, ularni kesib turli ko’rinish va mazmundagi haykallarni yasaganlar. Qadimdan kishilar san’at, tabiat hodisalari va kishilarning o’zaro munosabatlari, faoliyatlariga, xulqiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Ayni paytda tasviriy san’at asarlari kishilarning his-tuygulariga kuchli ta’sir ko’rsatish imkoniyatiga ham egadir. Kishilar tasviriy san’at asarlarini tomosha qilish orqali, ularda ifodalangan go’zallikni ko’rish orqali o’z hayotlariga ana shunday go’zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonlarni ko’rib esa ularga o’xshashga intiladilar. San’at asarlarida ifodalangan salbiy voqealar, hunuk xatti-harakatlarni ko’rib, ulardan muayyan xulosalar chiqaradilar, bunday hodisalardan yiroq bo’lishga intiladilar.

Ayniqsa tarixiy mavzudagi san’at asarlarini tomosha qilganda, o’sha davrdagi tabiat manzaralari, narsa va buyumlar, mehnat va jang qurollari, kishilar hayoti, urf-odatlar bilan tanishadilar, qurilishlar, binolar haqida tasavvurga ega bo’ladilar.

Rassomlar o’z asarlarida hayotni qanday ko’rsalar o’shanday emas, balki undagi alohida e’tiborga molik xarakterli ko’rinishlarni tanlab oladilar, e’tiborsiz,

ikkinchi darajali ko'rinishlarni tushirib qoldiradilar, eng muhimlarini esa bo'rttirib ko'rsatadilar.

Tanlash va bo'rttirish orqali rassom narsa va hodisalarning kishilar tafakkuri va xissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishiga erishadilar. Rassom borliqni shunchaki biladigan kishigina emas, balki u avvalo, boy tasavvur va tafakkuri qilish qobiliyatiga ega bo'lgan ijodkordir.

1.1.Dekorativ kompozitsiya: «To'maris» afsonasi asosida rasm ishlash

Badiiy asarning mazmuni kitobxonga tez va oson yetib borishi uchun rassomlar tomonidan kitoblarga turlicha rasmlar ishlanadi. Bu rasmlarni illyustratsiya deb atashadi. Ular asardagi voqeani voqea sodir bo'lgan davr ijobiy va salbiy obrazlar haqida to'la to'kis tushuncha beradi. Rassomlar bunday asarlarga rasm ishlash uchun avvalo uni bir necha bor o'qib chiqadilar. Bundan tashkari voqea ro'y bergan mamlakatning tabiatni, kishilar hayoti turmush va ish qurollari bilan tanishadilar.

Ma'lum tayyorgarliklardan so'ng asardagi biron onga (momentga) rasm ishlaydilar.

O'quvchilar «To'maris» afsonasi mazmuni yuzasidan quyidagi savollarga javob topishlari lozim.

1. To'maris haqidagi hikoyalarni hech eshitganmisiz?
2. Massagitlar hukumdori malika To'maris qanday jasorat ko'rsatgan?
3. Dushman xalqni buysundirish uchun nima qildi?
4. Eron shoxi Kir II To'marisga qay maqsadga maktub yo'lladi?
5. Eron lashkarlari To'marisning o'g'li Sparganisni qanday hiyla bilan qo'lga kiritdi?
6. Jang natijasi nima bilan tugadi?
7. To'maris eron shohi Kir II ni qanday mag'lub qildi?
8. Afsonadagi bosh qahramonlar kimlar?
9. To'marisni kiyimlari yuz tuzulishlari qanday?

Afsonadagi salbiy obrazlar kimlar va ularni og'zaki tasvirlang.

Bolalar o'ylab ko'rib afsonadagi quyidagi qiziqarli joylarga rasmlar ishlaydilar.

To'marisning jasorati: Ko'p mamlakatlar va podsholarni taxlika va qo'rquvga solgan Eron shoxi Kir II ni yengan qahramon ayol To'maridir. Massagetlar podshosi bo'lgan go'zal, oqila va jasur To'maris haqida ko'p hikoya va rivoyatlar saqlangan. Shulardan biri Gerodotning "Tarix" kitobida keltirilgan.

Yovuz va maqtanchoq Kir II massagetlar yurtida miloddan avvalgi 530-yilda hujum qiladi. Massagetlar hukmdori malika To'maris edi. U taxtda erining vafotidan so'ng o'tirgan edi. Kir II malikaning huzuriga maktub va katta sovg'a-salom bilan elchi yuboradi. Maktubida malika To'marisga: "Agar menga turmushga chiqishga rozi bo'lsang, oltin-kumushga ko'mib tashlayman, bir umr ko'kka ko'tarib yuraman", deyilgandi. To'maris uning shirin so'zlariga uchmadi. "Senga, ayyor shoh, aslida men emas, podsholigim kerak" dedi ichida To'maris va Kir II ning sovg'a-salomiga nazar ham solmadi, elchilarini iziga qaytarib yubordi. Kir II yana bir necha marta shunday mazmundagi maktub qaytarib yubordi. Lekin baribir maqsadiga erisholmadi. Shundan keyin u son-sanoqsiz lashkar bilan Amudaryo bo'yiga kelib, uning ustiga ko'prik qurdira boshladi. Katta qo'shinni shu ko'prikdan o'tkazib, massagetlarga qarshi urush ochishga qasd qildi.

To'maris Kir II ning asl maqsadini bilgandan keyin uni bu yo'ldan qaytarmoqchi bo'lib, unga elchi orqali maktub yo'lladi. "Niyatingdan qayt, o Midiya shoh! qo'l urayotgan ishing nima bilan tugashini bilmaysan. Es-hushingni yig'ib ol! huzur-halovat qilib, o'z mamlakatingni idora qil! Bizlarni esa tinch qo'y! Bizga tegma! Lekin bilaman, baribir nasihatimni qabul qilmaysan, chunki senga tinchlik, osoyishtalikdan ko'ra, mo'may boylik kerak. So'zimizga quloq solging kelmasa, bilganingni qil! Agar urushmoqchi bo'lsang, bizga bitta imkon ber. Odamlarimizni daryo bo'yidan uch kunlik yo'lga, cho'l ichiga olib ketaylik. Keyin qo'shining bilan bostirib kiraver. Agar biz bilan daryo qirg'og'ida urushmoqchi bo'lsang, bunga ham qarshi emasmiz".

Kir II To'marisning maktubi bilan tanishgandan keyin lashkar-boshilarini to'plab, kengash o'tkazdi. Lashkarboshilarning aksariyati massagetlar bilan shu erda, daryo bo'yicha urushmoqni afzal ko'rdilar. Faqat lashkarboshi Kryoz massagetlar uch kunlik yo'lga, cho'l ichiga ko'chib ketganlaridan keyin urush boshlash lozim, deb taklif qildi. Kir II Kryozning taklifini qabul qildi va To'marisga shunday xat yozdi: "Taklifingni qabul qildim. Mayli, uch kunlik

yo'lga, cho'l ichiga ko'chib o'tinglar. Ammo nima bo'lganda ham men senlarning kullaringni ko'kka sovuraman”.

Massagetlar To'maris boshchiligida uch kunlik yo'l bosib cho'lga chekindilar. Shundan keyin Kir II qo'shinining bir qismini daryo bo'yida qoldirib, daryodan o'tdi va lashkari bilan massagetlarning qo'lga tushdi.

To'maris daryo bo'yida pistirma qoldirib ketgan edi. Ertasi kuni pistirmadagi lashkarlar Kir II ning qoldirib ketgan lashkarini tor-mor keltirib, qurol-aslaha, chodirlari va kiyim-kechaklarini o'lja qilib oldilar. Shundan so'ng bazm-u safo qilib, qattiq uxlab qoldilar. Shu payt Eron lashkarlari ularning ustiga bostirib keldilar va bir qismini qirib tashladilar. Ko'pchiligini esa asirga oldilar. Asirga tushganlar ichida To'marisning o'g'li Sparganis ham bor edi.

To'maris bo'lgan voqeadan xabar topgach ko'p qayg'urdi va Kir II ga quyidagi maktubni yo'lladi: “O, qonxo'r Kir! Maqtanma, lashkarlarim va o'g'limni ochiq jangda emas, mast holda asir olding. Yaxshilik bilan uni qaytarib ber va yurtingga qayt! Aks holda tangrim nomi bilan qasam ichamanki, seni o'z qoningga to'ydiraman”.

Lekin Kir II uning gapiga quloq solmadi. To'marisning o'g'li asirga tushganini bilgach, o'zini o'ldirdi. To'maris bor lashkarini olib, Kir II ustiga yurish qiladi. Har ikki tomon bir-birini o'qqa tutib, bir-biriga nayza sanchib, dahshatli jangda to'qnashdi. Qon ariqdagi suvday oqdi. Bu urushda Kir II ning o'zi ham halok bo'ldi. Massagetlardan bir yigit o'liklar orasidan Kir II ning jasadini topib, kallasini kesib, To'marisning oyog'i ostiga tashladi. Malika uning boshini qon to'ldirilgan meshga solishni buyurdi va baland ovozda: “Erimni, o'g'limni o'ldirding, mening ham qonimni ichmoqchi bo'lding. Tirikligingda inson qoniga to'ymagan eding. Mana, endi to'yganingcha ich, qonxo'r!”, dedi. Massagetlar bilan Eron shohi Kir II o'rtasidagi bu urush tillarda doston bo'ldi. “Mening bilishimcha, urushlar ichida bundayin urushni hech kim ko'rmagan”, deb yozgan edi Gerodot hikoyasining bir kunida.

Afsona uchun yaratilgan quyidagi rasimga bolalar etibori qaratilgan. Uni afsonadagi qaysi holati ishlaganligi unda nima, kimlar va nimalar tasvirlanganligi, ranglari, shakllari tuzilishi asarning kompozitsiyasini bilib olishlari talab etiladi.

Bu illyustratsiyada:

- kimlar va qanday voqea tasvirlangan?
- uni qanday bilish mumkin?
- voqea qayerda sodir bo'lyapti?
- uni qanday bilish mumkin?
- vakea qaysi davrda ruy bergan?
- uni qanday bilish mumkin?
- rasm yoqdimi?
- nima uchun yoqdi?

Bolalar ertakdagi yuqorida qayd qilib o'tilgan onlardan birortasini tanlab rasm ishlaydilar. Rasm ishlash uchun avvalo voqea qayerda sodir bulayotganligini unda kimlar ishtirok etishi odamlar qanday kiyinishlarini ular atrofida kimlar, nimalar borligini o'ylab olish lozim. So'ngra asosiy obrazni daftarning qayeriga tasvirlash ham belgilab olinadi.

Rasm ishlashda bolalar rassomlar tomonidan ishlangan. Ushbu rasmlardan foydalanishlari mumkin. Chizilgan rasmdagi voqea qayerda ro'y berayotganini bildirish uchun uning fonidagi uy yoki tabiat manzarasi tasvirlanadi. Agar rasmdagi voqea ko'chada yuz berayotgan bo'lsa unda O'zbekiston me'morchilik yodgorliklariga oid rasmlardan foydalanish mumkin. Ularni faqat rasm foniga ishlanadi.

Ishlangan rasmni bo'yashdan avval bolalar ularni o'qituvchilariga ko'rsatishlari so'ng o'qituvchi bildirgan fikrlari asosida uni yana bir bor ko'zdan kechirib xatolari bo'lsa tuzatishlari talab etiladi.

Rasm tayyor bo'lgach qog'oz sirti xo'llab qo'yiladi.

«To'maris» afsonasi asosida chizilgan rasmni muvaffaqiyatli quyidagi jihatlariga bog'liq.

- 1 Rasmda yilning qaysi fasli kunning qaysi vaqti tasvirlanadi va ularga ranglarni to'g'ri tanlash.
 2. Rasmdagi asosiy obrazni qanday ranglar bilan ajratib tasvirlash.
 3. Rasmda ranglar perspektivasiga rioya qilish
 4. Rasmda kaloritga rioya qilish
 5. Rasmda rang berishda yorug'-soya qoidalariga rioya qilish
- Ijobiy va salbiy obrazlarni tasvirlashda og'ir va yengil ranglardan o'rinli foydalanish va booshqalar.

1.2. Ilyustratsiya bajarishda kompozitsiyaning roli va rangshunoslik

Tasviriy san'atning nazariy asoslari bilan tanishish har bir mutaxassis uchun nihoyatda zarur. Bunda asosiy e'tibor kompozitsiya nur va soyaning o'zaro muvaffaqiyatligi rangshunoslik prespektiva fanini o'rganishga qaratiladi.

«Kompozitsiya» atamasi lotin tilidan olingan bo'lib tuzilish, birlashish, bog'lanish ma'nolarini anglatadi. Asarning kompozitsion tuzilish ijodkor g'oyasini tomoshabinga aniq, oson, tez yetib borishiga xizmat qiladi.

Kompozitsiya orqali rassom asardagi mazmunning muayyan tartibdagi chiziq, shakl, rang va boshqa vositalar orqali tomoshabinga ta'sir kuchini oshiradi. Uning elementlarini o'zaro bog'lab joy-joyiga qo'yadi. Fazoviy kenglikni yaratadi.

Har bir tasviriy san'at asari ma'lum kompozitsiyaga ega bo'ladi. Zero kompozitsiya asar yaratilishida birinchi galda hal etiladigan muhim ish hisoblanadi.

Kompozitsiya tuzilishining o'ziga xos qonun qoidalari vosita va uslublari mavjud. Kompozitsiyaning vosita va uslublarni batafsil o'rgatuvchi «Kompozitsiya» fani ham mavjud.

Frontal kompozitsiya. Bunda tasvir tekislik yuzasidan ishlanadi. Ular rangtasvir relefli haykallar, binolarning old qismi fasadidagi tasvirli naqshlar bo'lishi mumkin.

Hajmli kompozitsiya. Bunday kompozitsiyalar uch o'lchamga ega tasvirlar bo'lib har tomondan kuzatish mumkin. Ular asosan yumaloq haykallar, amaliy san'at buyumlari me'morchilik binolarining modellarida namoyon bo'ladi.

Chuqur – fazoviy kompozitsiya. Bunday kompozitsiyalar ko'proq turar joy va jamoat binolarining ichki qismini xususan uy ichki xonalari, jamoat joylarining foyesi, teatr sahnasi kabilarning loyihalarida ko'ziga tashlanadi.

Rangtasvir kompozitsiyasi ham tasviriy san'atda katta o'rinni egallaydi. Bunga sabab tasviriy san'at oldiga qo'yiladigan vazifalarning aksariyati xususan kishilarda badiiy did, tafakkur va xotirani o'ustirish, dunyoqarashni kengaytirish.

Tasviriy san'atni his etish malakalarini rivojlantirish. Rangtasvir kompozitsiyasini asosini tashkil etadi.

Haykaltaroshlik kompozitsiyasi bevosita haykal yaratish bilan bog'liq bo'lgan talab va qoidalar, uslub va vositalarining amaliy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Dekorativ kompozitsiya tushunchasi asosan rang tasvir va haykaltaroshlik qo'llanadigan badiiy bezak ishlarini ifodalaydi. Ular freska, mozayka, vitraj, istirohat bog'lari haykaltaroshligi mayda plastika me'morchilikda esa binolarning relefli bezaklarida frizlar shaklida keng qo'llaniladi.

Tasviriy san'at asarlaridagi kompozitsiyani tuzish tamoyillarini puxta egallash bo'lg'usi mutaxassis rassomlar uchun nihoyatda zarurdir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek rangtasvir kompozitsiyasi ham rasm ishlashdagi murakkab jarayonlardan hisoblandi. Shuning uchun ham odatda o'quvchi va talabalarning ishlari faqat perspektiva va rang jihatidagina emas balki kompozitsiya jihatidan ancha bo'sh bo'ladi. Bu yoshlar tafakkuri, tasavvuri va fantaziyasiing talab darajasida emasligi va rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga bunga o'quvchilarning kompozitsiyasining nazariy asoslarini uslub va vositalarini yetarliligicha bo'lmasliklari ham sabab bo'ladi.

Kompozitsiya haqida fikr yuritganda avvalo gapni uning o'lchami va formatidan boshlagan ma'qul. Chunki kompozitsiya tasvirlanganligini oshirishda uning o'lchami va formatini «ko'ndalang, tik, kvadrat formatlar» tuo'g'ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Yaratilajak asar formati, ya'ni shakli va o'lchami rassomning g'oyasi asar mavzusiga va suratdagi detallarga bog'liq bo'ladi.

Aytaylik portretda figura tikkasiga tasvirlanadigan bo'lsa, rassom asar formatini bo'yiga tutadi. Yoki rassom tasvirni chapdan o'ngga va aksincha o'ngdan chapga harakatda tasvirleydigan bo'lsa asar formatini eniga tutadi.

Albatta surat kompozitsiyasi va uning tasvirlanganligini oshirishiga qo'yiladigan talablarni hammasi ham yoshlarni idroki va saviyasiga mos emasdek tuyuladi. Biroq o'qituvchi kompozitsiyaning ana shu muhim nazariy asoslarini

yoshlar idrokiga mos keladigan samarali yo'llar va usullar bilan tushuntirish lozim. Shunda bu boradagi materiallar talabalar tomonidan yaxshi o'zlashtiriladi.

Kompozitsiya qonunlari deyilganda birinchi galda bir butunlik yoki surat detallarining o'zaro bog'liqligi qonuni, kompozitsiyadagi dellarning asar g'oyasiga muvaffaqiyatligi qonuni, muvozanat qonuni, suratda yangilikning bo'lishi kontrastlar qonuni, hayotiylik qonuni kabilar nazarda tutiladi.

Kompozitsiya qoidalari deganda esa ritm kompozitsion markazining bo'lishi detallarni simmetrik yoki assimetrik joylashuvini kompozitsiyada harakat turgunlik, planlilik, paralellik kabilar nazarda tutiladi.

O'quvchilar kompozitsiyaga xos qonun va qoidalar bilan birga uning uslublari va vositalari haqida ham ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari lozim.

Kompozitsiya uslublari deyilganda tasvirni maksimal tarzda ifodalash, fazoviy tasvirlash detallarni tik yotiq dioganallar bo'yicha tasvirlash kabilar tushiniladi. Masalan, V.Surikov «Boyvuchcha Morozova» nomli asarida kompozitsiyadagi harakatni ko'rsatish uchun detallarni diogonal yo'nalash bo'yicha joylashtirgan .

Kompozitsiya vositalari deyilganda chiziq, oq va qora ranglar, rang dog'lari, chiziqni va havo (rang) perepektivasi qoidalari asosida tasvirlash tushiniladi .

Kompozitsiya qonunlari haqida gapirganda shuni ham ta'kidlash lozimki, surat detallarning o'zaro o'zviy bog'liqligi qonuniyat ko'ra asar g'oyasidan kelib chiqqan holda uning mazmunini tushunarli talqin etilishi uchun unda barcha mavjudodlarning bir-biri bilan aloqadorlikda tasirlanishi talab etiladi. Aks holda asarning tomoshabinga ta'siri bo'lmaydi.

Suratda muayyan yangilikning bo'lishi yoki asarning original va betakror bo'lishi esa masalaga ijodiy yondashish lozimligini bildiradi. Ya'ni yaratilgan asarda rassom kompozitsiya mazmun g'oya, rang elementlarining joylashuvi jihatidan yangicha yondashuvlarga erishmog'i kerak. Suratda yo'qorida qayd etilgan jihatlari bilan avval yaratilgan asarlaridan tubdan farq qilsa ya'ni original va betakror bo'lsagina u yuqori baholanadi. Alohida e'tirofga sazovor bo'ladi.

Asarning bosh g'oyasi tabiat go'zalligini tarannum etish bo'lsa uyda rassom suratdagi barcha detallarni o'z g'oyasiga mos ravishda tuzishi shunga muvofiq shakl rang va boshqa jihatlarni tanlashi kerak bo'ladi. So'ratdagi hayvonlar, daraxtlar, tog'u-toshlar, uylar, soylar hattoki osmondagi bulutlar shakl va rang jihatidan mazmunga mos tarzda tasvirlanishi kerak bo'ladi.

Kompozitsiyada kontrastlar qonuni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu qonun asardagi detallarning ton jihatidan bir-biridan keskin farq qilishini bildiradi. Xususan ular och va to'q, iliq va sovuq randa, og'ir va yengil ranglarda bir-biriga qarama-qarshi bo'lishlari mumkin. Shundagina suratdagi detallar bir-birining fonida aniq va ifodali ko'rinadi.

Kompozitsiyada muvozanat qonuni muhim jihatlardan hisoblanadi. Bu qonun surat yuzasida joylashgan detallarning chap va o'ng, yuqori va past tomonlarida shakl rang ton detallar soni ularning katta yoki kichikligi jihatdan teng bo'lishi lozimligini anglatadi. Bu sifatlarni u yoki bu tomonida ko'p yoki kam katta u kichik, och yoki to'q bo'lishi suratdagi tomonlarning muvozanatini buzilishi mumkin. Natijada suratning u yoki bu tomoni pastga yoki yuqoriga chapga yoki yuqoriga olgandek tuyuladi.

Bu esa shubxasiz tomoshabinnig g'ashiga tegadi. Kompozitsion muvozanatning o'rinligiga misol tariqasida R.Oripovanning «Qoraqalpoq kelini» nomli asarini keltirish mumkin. Unda rassom o'ng va chap tomonlardagi detallarni joy-joyiga qo'yish orqali rasm kompozitsiyasidagi muvozanatni ta'minlagan.

Kompozitsiyaning qoidalari orasida kompozitsion markazning mavjudligi juda muhimdir. Asarda bu qoidaga rioya qilishi rassom g'oyasining tomoshabinga tezroq va aniq yetib borishiga xizmat qiladi.

Kompozitsion markazni ajratib ko'rsatish usta Mo'minning «Xirmon» nomli suratida o'lcha, joy, rang vositasida amalga oshirilgan. Natijada bu tomoshabin e'tiborini suratdagi asosiy ob'ektga qaratadi va rassom o'z maqsadiga oson erishadi.

Kompozitsiyada detallarning simmetrik yoki assimetrik tarzda joylashuvi asar mazmuni va rassomning g'oyasidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu qoida suratdagi detallarning og'irligi toni, rangi, shakli jihatidan muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Uni O.Tatvosyaning «Sayl» nomli so'ratida yaqqol ko'rish mumkin.

Asarda detpallarning assimetrik joylashuvi esa detal shakl, yorug'' va soya, rang va harakat holatlar orqali ro'y beradi. Detaillarning asarda assimetrik joylashuvi rasm g'oyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Aytaylik asarning 2 tomonida qarama-qarshi kuchlar tengsizligini ko'rsatmoqchi bo'lganda rassom assimetrik qoidasidan foydalanish mumkin. Detaillar assimetrik bo'lgani taqdirga asarda muvozanatni o'zlasligi uchun rassom detaillarni ritmik joylashtirishdan foydalanadi.

Rassomlar ko'pincha o'z asarlarida muayyan ritm bo'lishiga e'tibor beradilar. Bu tasviriy san'atning barcha tur va janrlarida qo'llaniladi. Ritm ko'proq shakl, rang, o'lchov, nur va soya, harakat ko'rinishlarida ifodalanadi. U asar mazmuni bilan bog'lik bo'lib muallifning g'oyasini tomoshabinga tez va oson yetkazishga xizmat qiladi. Asarni ifodaviyligini oshiradi. Buni A.Rilovning «Moviy kengliklarda» asarida yaqqol ko'rish mumkin.

Tasviriy asarlarda asosiy narsa yoki voqea ko'pincha ikkinchi planda joylashtiriladi. Bu esa birinchidan asosiy narsani asar markazida bo'lishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan birinchi plandagi mayda detaillar asosiy narsaga yo'l ochadi va tomoshabinning asardagi asosiy voqea bo'layotgan joyga kirib borishiga yordam beradi. Birinchi uchinchi va boshqa plandagi tasvirlar asosiy mavzuning ochilishiga yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kompozitsiyada harakat va turg'unlik qoidalari ham borki ular asar muallifining g'oyasini va asar mazmunini to'liqroq ochib berishga xizmat qiladi. Kompozitsiyada harakat va turg'unlik asardagi voqeaning ishonarli bo'lishga yordam beradi. Kompozitsiyadagi harakat va ritm Ch.Liveyning «Shiddatli parvoz» va V.Surikovning «Boyvachcha Morozova» nomli so'ratlarida muvaffaqiyatli hal qilingan.

Kompozitsiyada detallar harakatining chapdan o'ngga tomon joylashuvi uni sekinlashuviga va o'ngdan chapga joylashuvi esa uni tezlashishga xizmat qiladi. Kompozitsiyada harakat voqeaning rivojlanib borishiga qaratilsa, turgunlikda voqeaning to'xtashi haqida tasavvur hosil qilishda fikr yuritishga imkon berishi kabi holatlarni tasvirlashda foydalaniladi.

Turg'unlik ko'pincha portret janridagi asarlarda ko'proq ishlatiladi.

Rangshunoslik.

Tasviriy san'atda ayniqsa, rangtasvirda rangning roli benihoyat kattadir. U asarning mazmuni va g'oyasining to'la ochilishiga uni tomoshabinga emotsional – hissiy ta'sirini kuchaytirishga, shuningdek kompozitsiyadagi muvozanatni saklashga xizmat qiladi.

Ranglar haqida fikr yuritish va bo'yoqlar bilan ishlashdan avval ularning nomlari, tulari haqida tasavvurga ega bo'lish lozim. Shu sababli quyida rangshunoslikda qo'llaniladigan asosiy atamalar lug'atini keltiramiz.

- oq – paxta rangi
- qora – kumir rangi
- kulrang – yongan utindan hosil bo'lgan kulrangi.
- qizil - anor gulining rangi
- qirmizi – anor mevasi donalarining rangi
- binafsha – binafsha gulining rangi
- lolaro'y – lola gulini rangi
- zarg'aldoq (noranj) – apelsin zarg'aldoq shaftoli rangi
- sariq – momoqaymoq (qoqi o't) gulining rangi
- havo rang – osmon rangi
- zangori – to'q osmon rangi
- moviy – (nilufar) erta tongdagi sof osmon rangi
- malla – limon mevasining rangi
- yashil – to'q barg rangi
- jigar rang – mol go'shtining rangi
- mosh rangi – pishgan mosh donining rangi

- pistaqi – kunga boqar pistaqisi mag'zining rangi
- navoti - navoti rangi
- to'tiyo – yorqin yashil meditsinada ishlatiladigan zelyonka rangi
- shingob – tilla rang
- bronza – kumush rang
- sabza – erta bahorda yangi o'sib chiqqan maysa rangi
- lojuvard – eng to'q zangori rang
- sadaf – och sarg'ish dengiz chanog'i rangi
- kilgun – och jigarrang
- siymob – simob rangi
- feruza – yorqin zangori va yaltiroq rang
- navshadil – o'tkir yorqin yashil rang
- gulgun – shafak rangi
- zafaron – to'q sariq rang
- zumrad – yashil yaltiroq tosh rang
- naragivash – och apelsin rangi
- nofarmon – och binafsha rang
- samoviy – samon rangi

Ma'lumki mutaxassislar ranglarni ikki turga bo'lishadi. Birinchi – asosiy ranglar, ikkinchi qo'shimcha ranglar. Asosiy ranglarga qizil, sariq va zangori ranglar kiradi. Qo'shimcha ranglar ana shu asosiy ranglarni bir birlari bilan ajratilishi orqali olinadi. Masalan, qizil va sariq ranglar aralashuvidan zarg'aldoq: sariq va zangori ranglar aralashuvidan yashil; qizil va zangori ranglar alashuvidan esa binafsha ranglar olinadi. Bu olingan ranglarni o'zaro ikkinchi bor aralashtirish orqali yana boshqa ranglar va ularning tuslarini hosil qilish mumkin. Yangi ranglarni hosil qilishda oq va qora ranglar ham ishtirok etishlari mumkin.

Rangshunoslikda ranglarning xromatik –axromatik turlari ham bo'ladi. Xromatik so'zi yunon tilidan olingan bo'lib rangli ma'nosini anglatrsa, axromatik so'zi “rangsiz” degan tushunchani bildiradi.

Axromatik ranglar qatoriga oq-qora, kulrang kirsa ulardan boshqa hamma ranglar xromatik ranglar hisoblanadi.

Rangshunoslik fanida iliq va sovuq rang tushunchalari ham bor. Mutaxassislar issiq ranglar qatoriga sariq, qizil, zarg'aldoq, sabzi, pushti, sadaf, malla, qirmizi, lolarang, gulgun, zafaron, lorangjuvash, samoniy, bargikaram kabilarni kirishadi. Ular o'z xususiyatlariga ko'ra bir ko'rishda kishilarda iliqlik kayfiyatini hosil qiladi.

Sovuq ranlarda esa zangori, havorang, moviy, yashil, binafsha, moshrang, to'tiyo, feruza, zumrad, nofarmon kabilar kiritiladi. Ular kishilarda ko'proq sovuq kayfiyat hosil qiladi. Iliq kayfiyat ham sovuq kayfiyat ham uyg'otmaydigan ranglar ham bor.

Masalan, kul rang, jigar rang, siymob shular jumlasidan. Ranlarning og'iri ham yengili ham bo'ladi. Og'ir ranglar qatoriga ko'proq to'q, yengiliga esa och ranglar kiradi. Xususan qora, jigarrang, yashil, binafsha, to'tiyo, lojuvard ranglar oq-sariq, havorang, moviy, mala, pushti, navoti, sabza kabilarga nisbatan kuzatuvchiga og'irroq tuyuladi.

Ranglar nazariyasida ranglar qarama-qarshiligi (kontrast ranglar) atamasi ham ishlatiladi. Ranglarning o'ziga xos xususiyatlardan biri shundaki ular birlarining yonlarida turganlarida alohida olganidan ko'ra boshqacha ko'rinadi. Ular bir birining tuslarini aniqroq kuchliroq ko'rinishiga yordam beradi. Ranglarning bu xususitlaridan rassomlar o'rinli foydalanib asabdagi asosiy obrazni ajratib ko'rsatish maqsadida qarama-qarshi rang xodidasidan foydalanadilar. Masalan: asoan obrazni och rangda tasvirlasalar uning atrofini fonini to'q rangda oladilar va aksincha.

Ranglar qarama-qarshiligi quyidagi ko'rinishlarda ishlatilishi mumkin.
Bir rangni ikki xil chiziq och va to'qlikda qo'llash
Ikki rangning och va to'q tuslarini qo'llash
Bir rangning ko'p tuslarini qo'llash.

Ranglar qarama-qarshiligi quyidagi suratdagi asosiy obraz bilan fon, asosiy obraz bilan muhit o'rtasidagi munosabatlarni yaqqolroq ifodalash uchun qo'llaniladi.

Rangning asosiy xususiyatlari uning yorqinligi (och-to'qligi) bilan belgilanadi.

Rang yorqinligi deganda uning och va to'qlik darajasi tushiniladi. Masalan: pushti rang – yorqin yoki och deb baholansa, qizil unga qaraganda yorqinligi sust, ya'ni rangi to'qroq.

Rang tusi deganda esa asosan uning tozaligi, sof holdagi rangi tushiniladi. U ikki xil ma'noda ishlanadi. Masalan: qizil, sariq, zangori, yashil va boshqa ranglarni tus jihatidan bir-biridan ajralishini bildiradi. Ikkinchi ma'nosida bir rangning turlicha ko'rinishlari ham rang tusi hisoblanadi. Masalan: qirmizi, shafak, lolarang kabi ranglar qizil rangning tuslari hisoblanadi.

To'yingan ranglarga sof holdagi xromatik ranglar kiradi. Kam to'yingan ranglar tarkibida oq rang yoki kulrang ko'proq bo'ladi.

Har qanday predmetning hajmi, shakli materiali va ularning joylashuvini biz faqat nur va soya jihatidagina emas, rang jihatidan ham idrok etamiz. Hajm va materialni idrok etish predmetlar yuzasidan joylashgan nur va soya ranglarga bog'liq bo'ladi. Birinchi va ikkinchi plandagi predmetlarning ranglari bir-biridan o'z to'yinganliklari bilan keskin farq qiladi. Shuning uchun ham biz narsalar shaklini tabiiy emas, perspektiv ko'rinishini tasvirlaganimizdek, ular ranglarini ham tabiiy emas, perspektivada ko'rinayotganidek shartli tasvirlashimiz kerak bo'ladi.

Ko'zatuvchiga nisbatan turli xil tusda, o'rmon uzoqlikda joylashgan va bir xil yashil ranga ega bo'lgan daraxtlar turli tusda, o'rmon esa uzoqdan deyarli kulrang ko'rinadi. Chunki kuzatuvchidan ob'ektgacha bo'lgan masofadagi havo qatlami ma'lum zichlikka ega bo'lganligi sababli rang nurlarini ma'lum miqdorda ushlab qoladi. Natijada predmetlarning ko'rinayotgan ranglari o'z tuo'yinganligini yo'qotadi.

Bunday holni U.Tansiqboevning «Tong yo'li» asarida yaqqol ko'rish mumkin.

Ko'zatuvcchi bilan ob'ekt o'rtasidagi masofaning o'uzoq yaqinligi natijasida faqat ularning ranglari emas, balki rang tuslari ham o'zgaradi. Uzoqda joylashgan narsalar ko'prok, havorang tusda ko'rinadi, chunki osmondagi havo rang va zangori nurlar fazoga tarqalib, ularga havo rang tus beradi. Atmosferadagi namlik va chang zarrachalarining soni va o'lchamiga qarab yorug'likning tarqalish darajasi, xarakteri o'zgaradi. Agar havo namlik bilan tuyingan bo'lsa, yirik zarrachalar yorug'likni ko'p tarqatadi va u ko'proq oqish ko'rinadi. Predmet ko'zatuvcchidan uzoqlashgan sari o'z ranglarining to'yinganligini yo'qotadi. Natijada havo rang zangori tusga kiradi. Ob'ektning soya joylari esa yorug'lashib, sirtidagi rang va yorug'lik farqlari kamayadi. Shuningdek, predmet zirxlari, uning bo'rtgan joylari, bo'laklari o'z aniqliklarini yo'qotadi.

Rang perspektivasi deganda borliqdagi narsa va hodisalarning kuzatuvchidan uzoqlashgan yoki yaqinlashgan sari ularning ranglarida bo'ladigan o'zgarishlar tushiniladi. Ayrim mutaxassislar ularni havo perspektivasi deb ham atashadi. Chunki ranglar perspektivadagi o'zgarishlarga asosan havo katlami ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, rangni uzoqdan o'zgarib ko'rinishiga chang, yomg'ir, tuman, qor yog'ishi ham sabab bo'lishi mumkin.

Yorug'lik manbasining o'zgarishiga qarab o'tlar, daraxt barglari, yer, uylarning ranglari turlicha tusga kiradi. Mazkur narsalar erta bahordagi tong paytidagi havo rang va zangori tusda bo'lsalar, kunduzi esa ular o'zlaridagi barcha mavjud rang tuslarini namoyon qiladilar. Bu hodisalarni U.Tansikboyevni «Kayroqqum GESi tongi», Z.Inogomovanning «Choyga» nomli asarlarida yaqqol ko'rish mumkin.

Kishining quyoshli yorqin kunida qor pushti rang tusda, soya joyda u havo rang yoki zangori tusda ko'rinadi.

Permetning rangi ularni o'rab olgan narsalar rangi ta'sirida o'zgaradi. Qanday hodisa rang realeksi deb yuritiladi. Predmetlar rangini biz tevarak atrofdagi narsalarning ranglariga nisbatan idrok etamiz. Agar predmet turgan joydagi fon o'zgartirilsa, o'sha predmetning rangi ham o'zgargandek tuyuladi. Sariq predmet zangori fonda sarg'ish yoki qizil fondagiga qaraganda yanada

sarg'ish tuyuladi. Yashilroq rangdagi predmet qizil fonda sarg'ish yoki zangori fondagiga qaraganda yorqin va yanada yashilroq tuyuladi. Iliq rangdagi predmet yonida turgan sovuq rangli predmet yanada sovuqroq tusga ega bo'ladi. Zangori rang yashil rang bilan yonma-yon tursa iliq tuyuladi. Agar predmet rangi sovuq bo'lsa, uning soyasi iliq tuyuladi va aksincha manzaradagi bironta daraxtni tasvirlashda uni faqat birgina yashil bo'yoq bilan bo'yash notug'ridir. Daraxtning rangi yorug'lik nuri va yosh atrofdagi narsalarning ta'sirida o'zgaradi. Shunga ko'ra uni o'ziga o'xshatish uchun turli rang tuslaridan foydalanish kerak bo'ladi. Shundagina u haqqoniy chiqadi.

Agar daraxt faqat bir xil tusdagi rangda bo'lsa, uning noaniq, sun'iy jonsiz tasviri hosil bo'ladi.

Narsalar sirtidagi rangning birgina nom bilan aytilishi loqal rang deb yuritiladi. Ya'ni daraxt yashil, sabzi sariq, gul qizil. Haqiqatdan har qanday predmet sirtida bir emas, bir necha xil rang tuslari aks etgan bo'ladi. Lekin ularning nisbatlari ko'proq yoki kamroq bo'ladi. Haqiqiy san'at asarlarini sinchiklab kuzatar ekanmiz, ularda tasvirlangan narsalar va odamlarning ranglari bir-birlari bilan o'zaro mutanosib ekanligini sezamiz. Shuning uchun ham surat ishonarli ko'rinadi.

Tasvirda yoki suratlarda hama ranglardan ustunlik qiladigan umumiy yorug'lik va rang birikmalariga kolorit deyiladi. Agar suratda qizil rang ustunlik qilsa, u qizil koloritli deb yuritiladi. So'ratlari iliq, sovuq, oltin, kul rang tus koloritda bo'lishi mumkin.

Suratda kolorit turli xil predmet ranglarning uyg'unligi orqali, yorug'lanish va yorug'lik ranglarning tevarak-atrofdagi narsa rang tuslari ta'sirida hosil bo'ladi. Osmon rangi predmetlarning soyasiga sovuq tus beradi. Quyosh nurlari predmetlarning yorug' qismlarini birlashtiradi. Kechki sun'iy yorug'lik manbalari esa predmetlarga umumiy sarg'ish zarg'aldoq tusini beradi. Uning turli ta'sirida zangori va havo rang ko'rinmay qoladi. Sariq, qizil ranglar yorqin, kul rang esa iliq tus oladi. Kechki sun'iy yorug'likni o'ziga aks ettiruvchi surat umumiy zarg'aldoq sarg'ish koloritga ega bo'ladi.

Tevarak atrofdagi narsalarning aks ta'siri ham naturaning koloritga ta'sir etadi. Quyosh nuriga chulg'angan fazo o'zining umumiy yorug'ligi va ko'p rangligi bilan farqlanadi. Biroq manzarada yoki naturada quyosh nurlari ta'siri ostida rang tuslarining turli-tuman bo'lishiga qaramay, tushuvchi soyalarga osmon, osmon, yer, tevarak-atrofdagi narsalarning ranglari aks etgan bo'ladi. Shunga muvofiq, turli rangdagi manzarada hamma predmetlar uchun umumiy bo'lgan ikki uch xil ranglar mujassam bo'ladi.

Kompozitsiyada bir necha ranglarning yig'ilib chiroyli birikmalarini hosil qilish ranglar garmoniyasi deb ataladi. Agar ranglar yoqimsiz birikmani hosil qilsa, bu holat disgarmoniya deb yuritiladi.

Rang guruhlarining garmonik birikmalari ba'zan gamma deb ham yuritiladi. Ba'zan to'yingan rang guruhlarining to'yinmagan ranglar bilan qo'shilishi ham garmonik birikmalarni hosil qilishi mumkin. Biroq, ayrim hollarda birgina rasmda to'yingan va to'yinmagan birikmalarning aks etish disgarmoniyani vujudga keltiradi. Rassom o'z ijodida ana shu jihatga qattiq rioya qilgan holda tasvirning ta'sirchanligini oshirishi mumkin.

Rang doirasi deyilganda, asosiy ranglar hisoblanuvchi qizil, sariq va zangori ranglarni ikkitadan o'zaro aralastirish orqali olinadigan 12 yoki 24 xil rang tuslarini doira bo'ylab yonma-yon qo'yilishiga aytiladi.

Obraz yaratishda «oldinga intiluvchi» va «ortga intiluvchi» ranglarning xususiyatini bilgan holda ish olib borish ham yaxshi natijalar beradi. «Oldinga intiluvchi» ranglarga ko'proq iliq ranglar kiradi va ular o'zlarining haqiqiy o'rnidan oldinroq ko'rinadi. «Oldinga intiluvchi ranglar qatoriga yorqin tuyingan ranglar, shuningdek materialning fakturasiga alohida e'tibor berilib ishlangan rasm ranglari ham kiritiladi.

Orqaga ishtiluvchi ranglar qatoriga asosan to'q ranglar kiradi.

Kompozitsiyada yorug'lik (och-to'q) ham undagi obrazlar ta'sirchanligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Buni axromatik ranglar bilan ishlangan rasmlarda ko'rish mumkin. Kompozitsiyada yorug'lik ranglarini ayniqsa, bo'rttirib ko'rsatish lozim bo'lgan obrazlarni tasvirlashda, kontrastdan

foydalanilganda yaxshi namoyon bo'ladi. Ya'ni, asosiy obraz to'q rang tuslarida tasvirlansa, uning atrofidagilar och rang bilan ishlanadi va aksincha, suratdagi asosiy obraz och rang bilan ishlangan, boshqalari to'q ranglar bilan tasvirlanadi.

Ranglar insonlar hayotidagi ahamiyatini chuqurroq o'rganish uchun bir qator olimlar maxsus tadqiqotlar ham olib borganlar. Shu maqsadda Tokioda dunyoda yakkayu-yagona rang instituti tashkil etilgan bo'lib, ularda ranglarning turli sohalarda samarali qo'llanishi o'rganiladi, ko'plab ilmiy-amaliy natijalar o'tkaziladi.

Ranglarning kishi ruhiyatiga ta'siri haqida mashhur nemis olimi va shoiri, rangshunos Gyote o'zining «Ranglar nazariyasi» nomli mashhur asarida «sariq rang ko'zni quvontirib, yurakni kengaytiradi, uni ko'rganda ruhimiz tetik bo'ladi va iz darhol iliqlikni his etamish», - deb yozadi.

Gyotening fikricha, zargori rang xissiyotni uyg'otsa, qizil rang seskantiruvchi, yashil rang ezgulik, xotirjamlik xislarini paydo qiladi. Yashil rangni Gyote ko'zni va ko'ngilni tinchlantiruvchi ta'sirga ega deb xisoblaydi.

Qizil rang qo'zg'atuvchi, hayajonlantiruvchi xususiyatga ega bo'lsa, sariq rang iliq, tetiklashtiruvchi, quvnoq, xushchaqchaq kayfiyat bag'ishlash xususiyatiga egadir. Och yashil rang tinchlantiruvchi hisoblanib, kishida yoqimli kayfiyat paydo qiladi. Uning tuslari turli xissiyotlarni uyg'otuvchi, zangori rang xotirjamlik, jiddiylik, g'amginlik, ma'yuslik uyg'otuvchi sifatga ega. Binafsha rang kishilar e'tiborini o'ziga tortuvchi, shu bilan birga o'zidan itaruvchi xususiyatga ega bo'lib, kishilarda g'amginlik va uychanlikni uyg'otadi.

Ranglarning kishilarga tasviri to'g'risida fransiyalik olim Shak Vinonning fikri diqqatga sazovordir. U rangning inson ongi, kayfiyatiga ta'miri haqida gapirib, rang kishida xotirjamlik va hayajonni hosil qilishi, xatto inson qalbini larzaga solishi, ba'zi hollarda sog'ligini falokatga giriftor qilishi mumkinligi haqida yozgan edi.

Xorijiy mamalakatlarda ranglarning inson ruhiyatiga ta'sirini yaxshi bilgan tadbirkor-biznesmenlar savdo ishlarini yaxshilash maqsadida restoranlar, savdo uylarining, ishlab chiqarilgan maxsulotlarning kishilar e'tiborini o'ziga tortadigan

ranglar bilan bo'yashga alohida e'tibor qaratadi. Ayrim ishlab chiqarish korxonalarida ishchilar charchamasligi uchun ish joylarini ishlab chiqarishni unumini oshirishga xizmat qiladigan ranglar bilan bo'yash orqali ish samaradorligini ko'tarishga erishganlar.

Ba'zi bir psixoterapevt, nevrologlar kasallarni davolashda ranglardan keng foydalanmoqdalar. Bunda ular ko'proq tinchlantiruvchi yashil, zangori ranglarning turli tuslaridan bemorlar davolanayotgan xonalarni bo'yash, yashil chiroq, ranglarning musiqa bilan hamohang taralishi orqali kasallarga ta'sir ko'rsatib, ijobiy natijalarga erishmoqdalar. Binobarin, ranglarning inson ruhiyatiga ta'siri ayniqsa, libos dizayneri tomonidan yengil sanoatda teng tatbiq etiladi.

Xalqimiz ranglarning inson ruhiyatiga ta'sirini tushungan holda qadimdan yoshiga yarasha madaniyat bilan kiyinib kelgan. Xususan, bolalar, o'rta yoshli qariyalarning, shuningdek, ayol va erkaklarning kiyim ranglari bir-biridan keskin farq qilgan.

Erkaklar kiyimlarining ranglari jiddiy va vazmin ayollarni go'zal, jozibador va viqorli bo'lgan grafikada illyustratsiya bajarish.

1.3 .Grafikada illyustratsiya bajarish

Grafika - lotincha soʻz boʻlib, yozaman, rasm ishlayman degan maʼnoni bildiradi. Grafikaning turlaridan biri gravyuradir.

Gravyura - fransoʻzcha soʻz boʻlib , «kesish» maʼnosini bildiradi. Bunda rasmlar avvalo metall, yogʻoch, linolium, tosh kabi materiallarda kesib ishlanadi, keyin kogʻozga undan koʻp tirajda koʻchiraladi. Metalda tayyorlanadigan gravyurani ofort, yogʻochdagisini ksilografiya, linoleumdagisini linogravyura, tosh orqali tayyorlanadiganini esa litografiya deb yuritiladi.

Grafika asarlarining qoʻllanish sohalari beqiyos kengdir. Xususan kitob itllyustratsiyalari, plakat, pochta markalari, gazeta jurnal bezaklari, karikaturalar, etiketka va upakovkalar, teatr va kino afishalari, yoʻl va tovar belgilari, tashkilot va muassasalarning ish blankalari shular jumlasidandir.

Kitob grafikasining vatani Sharq musavirlaridan Komoliddin Behzod, maxmud Moʻzaxxib, Muhammad Murod samarqandiy, Sulton Muhammad, Qosim Ali, Abdullo kabilar katta shuhrat qozongan boʻlsalar, XX asrda Oʻzbekistonda I.Ikromov, V.Kedrin, O.Osheyko, K.Basharov, T.Muhammedov, I.Krianidilar bu sohada Respublika va undan tashqari ham mashhur boʻldilar.

Grafikaning oʻziga xos xususiyatlaridan yana biri bu uning natija oʻlchovda boʻlmasligini va boʻyoqlar sonining chegaralanganligi hisoblanadi. Shuning uchun ham grafika asarlarida faqat chiziq yoki toʻq dogʻ ishtirok etadi. Baʼzan grafik tasvirlar rangli boʻladi.

Sanʼatning bu turida grafika asarlari koʻp nusxada tayyorlanishi ham mumkin va ular katta tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Bunday ishlardan biri plakatlardir.

Grafika sanʼatida estam katta urinni egallaydi. Estam fransoʻzcha soʻz boʻlib, shtamlash maʼnosini bildiradi.

Estam yaratish uchun, avvalo tasvir maxsus asboblar bilan qattik materillar – tosh, yogʻoch, linoleum uyish orqali tushiriladi. Soʻngra uyilgan material ustiga buyoq beriladi va undan tasvir olinadi.

Estamda shu narsa xarakterligi, gravyura bosmadan chiqqanidan so'ng rassom unda ba'zi bir tuzatishlar kiritib uni badiiyligini oshiradi va tagiga o'z imzosini qo'yadi.

Grafika texnikasining keng tarqalgan turidan biri illyustratsiyalar. Qadim zamonlardan beri tasviriy san'at kitob bilan bog'langan edi. O'rta asrlarda Sharq va G'arb mamalakatlardagi yaratilgan kitoblarning deyarli ko'pchiligi naqshlar va rangli rasmlar bilan bezatilgan. Bu rasmlarda kitob mazmuni o'z aksini topar edi.

Keyinchalik bosma kitoblar nashr etish ixtiro qilinganidan so'ng illyustratsiyalar kitoblarda, yanada katta urin egallay boshladi.

Ilyustratsiyaning ahamiyati shundaki, birinchidan u kitobni bezakli, chiroyli va yoqimli bo'lishiga yordam bersa, ikkinchidan adabiyobrazlarni konkret jonli bo'lishiga, o'quvchining yodida yaxshi saqlanib qolishiga yordam beradi.

Ilyustratsiya ishlashga kirishishdan avval rassom asarni yaxshilab o'rganib chiqishi bilan bir qatorda, asardagi voqea sodir bo'layotgan davrda doir materillarni to'plash, o'sha davr odamlarining madaniyati va turmushi, mamlakat tabiatni bilib olish kerak bo'ladi.

Karikatura ham grafikaning bir turi hisoblanadi. Unda hayotdagi ayrim holdisa va ko'rinishlar, shaxslar obrazi xajviy yoki xazil tarzda rasmlar orqali tasvirlanadi.

Grafikaning keng tarqalgan turlaridan yana biri reklama, afisha, etiketka, upakovka hisoblanadi. Gazeta, jurnal grafikasi ham shriftlar bilan bog'liq bo'lib, amaliyotda keng qo'llaniladi. So'nggi yillarda o'zbek grafik rassomlari milliy tasviriy san'atimizning badiiy ana'analari davom ettirib, yuksak badiiy saviyada asarlar yaratdilar. San'atning grafika turida muvaffaqiyatli ishlangan asarlardan biri Qutlug' Basharovning «O'zbek milliy uyinlari» tarixida «Kamondan o'q o'zish» deb nomlanadi.

Bolalar bu asarni ko'zatish orqali quyidagi savollarga javob topishlari talab etiladi:

- Mazkur asar grafikaning qaysi turiga kiradi?
- Suratda qanday o'yin aks ettirilgan?
- O'zbek milliy o'yinlari ekanligini qayerdan bilish mumkin?
- Har bir chavandozning holati bir xilmi, nega shunday?
- rassomning mahorati nimadan iborat?
- So'ratning nimasi sizga ko'proq yoqdi? Nima sababdan?

Iskandar Ikromov tomonidan Alisher Navoiyning «Lirika» nomli turt tomli to'plamidagi rasmlari rassom ijodining gullagan davrida yaratilgan ishlaridan hisoblanadi.

Bu ish 1960 yilda Toshkentda Markaziy Osiyo rassomlarining hududiy konferentsiyasi munosabati bilan ochilgan ko'rgazmada ikkinchi darajali diplom bilan taqdirlangan. Kitobning muqova jildi nihoyatda original va monand bo'lib chiqqan. Undagi tovus tasviri asarga lirik kayfiyat kashf etadi. Muqova yo'zasidagi grafik bo'lgalarning bir tekisligi tovus shaklini nafis ranglar bilan ifodalanishi qushning orqa tomonidagi havorang bo'yoqlar bilan belgilangan gul tasviri, shunigdek qizil rangda yozilgan kitob nomi ishning badiiy saviyasini yuqoriligini ta'minlagan.

Bu asar yuzasidan quyidagi savollarga javob topish talab etiladi.

Rassom nima sababdan muqova jiltiga tovus rasmini va gullar rasmini ishlagan? Lirika so'zining qizil rangda yozishning sababi nimada? Muqova kompozitsiyasi haqida qanday fikrdamiz?

O'zbek grafikasida samarali mehnat qilgan rassomlardan yana biri T.Muhammedovdir. U asosan o'zbek xalq ertaklariga nihoyatda jozibali illyustratsiyalar ishlab katta shuxrat qozondi. Uning eng muvaffaqiyatli ishlaridan biri «Nasriddin Afandi» haqidagi latifalar nomli kitobga ishlangan eshakni o'qishga o'rgatish nomli illyustratsiyasidir.

II-BOB. Kitob grafika kompozitsiyasida illyustratsiya bajarishning amaliy-ijodiy asoslari.

2.1 Kitob grafikasi kompozitsiyasiga illyustratsiya bajarish

Dastgohli va kitob grafikasi ham tasviriy san'atni barcha turlari kabi kompozitsiyaning umumiy qonunlariga tayanadi. Dastgohli grafika o'z xususiyatlariga ega bo'lib – shakl, masofa, chiziq, shtrix va kontur vositasida oq – qora tasvirida ifoda etiladi.

Kitob grafikasi XIX-XX asrga kelib rivojlana boshladi. Ayniqsa V.Fovorskiy, D.Shamarenka, Ye.Kibrig, O.Vereskiy kabi rassomlar klassik adabiyot asarlarini chuqurroq o'rganib kitob grafikasini yuksaltirdilar.

Kitob grafikasi bezagining muvaffaqiyatli chikishi rassomning qobiliyati, adabiyotni qanday taxlil kila olisha bog'liq.

Mahorat cho'qqisini egallagan bezakni rassomlar kitob mazmunini alohida grafik asari darajasiga yetkazadilar. Rassomlar D.Kordovskiyning yozuvchi A.Chexov yozgan «Kashtanka», A.Griboedovning «Gore ot uma», ABenuaning shoir A.Pushkinning «Mis chavanzoz» asarlariga ishlangan kitob bezaklari misol bo'la olishi mumkin.

Kitob bezash san'ati zarvarak – muqova va illyustratsiyalarni o'z ichiga oladi. Rassom hamma elementlarni bir kompozitsiya yechimida umumlashtiradi. Badiiy adabiyotlarning mazmuni va yo'nalishi (stili) kitob bezagida o'z aksini topishi kerak.

Kitob unsurlari: zarvara, ustmuqova, tilut, zastavka, konsovka, vinetka, bezak harf va hokazolar.

Rassom shundan iboratki u voqeani adabiy obrazni kitob mazmunini tasvir orqali tushuntirishga yordam berishi kerak. Kitob uchun ishlangan illyustratsiyalar shakl jihatidan dinamik, rangdor, tas'sir etuvchi adabiy asarning tekis matnini jozibali qilib ko'rsatishga yordam berishi lozim. Bolalar kitobiga ishlangan tasvirlar bolalarning uzoq vaqt eslarida qolib, ularning badiiy didlarini ustiradi. Bezak jarayonida format va harf ishlashda bolalarning yoshlari va talablarini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Zarvaraq (kitobning ustki qismi) o'quvchilarga badiiy matnning ma'lum yo'nalishini tasavvur etishlari uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari kitobning ustki bezagi reklama vazifasini o'tashi mumkin. Muqova bezagi kitob mavzuning maqsadiga muvofiq bo'lishi uchun kitobning nomi uni ifodalovchi tasvir, matn munosabatlari hamda uyg'unligi va birligiga ahamiyat berish lozim. Muqova bezagidagi kompozitsiya tuzilishi mazmun va g'oyani kitobning qaysi yoshdagi o'quvchilarga yozilganligini belgilab beradi.

Kitobga illyustratsiya bajarish badiiy asarga qarab ilmiy, ommabop, hujjatli, badiiy bo'lishi mumkin. Illyustratsiya grafikasi yaqin masofadan ko'rishga mo'ljallangan. Kitob mazmuniga qarab tasviriy vositalardan foydalanish mumkin. (tush, grafit, qalam, akvarel va x.k.). adabiyot obrazlar rassom qanday yo'nalishda va texnikada tasvir bajarish kerakligini belgilaydi.

Bir kitobda qalamtasvir soya-yorug', shakl, havo perspektivasi vosita bo'lsa, ikkinchisidan ertak mavzusi odam va hayvon o'simliklarni dekorativ tema usulida ifodalashi mumkin. Misol sifatida Billibinning «Qurba malika» ertak kitobining bezagini keltirish mumkin. Kitob muqovasidan Billibin rus xalq naqshlaridan foydalanib, baliqlar, suv parilari tasvirlarini ritm qaytarilishida ustalik bilan tasvirlagan. Muqova o'rtasida eski rus harfida sarlavhasi joylashtirilgan. «Shrift» xarakteri dekorativ tasvirga mos tushgan. Ertak illyustratsiyalari orgament shalkida tasvirlangan. O'zbek kitob grafika san'atining rivojlanish XX asr 45—yillariga to'g'ri keladi. Kitob grafikasining ko'ziga ko'ringan kekxa vakillari, V.Qaydalov, I.Ikromov, M.Shichirovskiylar sarali ijod qildilar. V.Qaydalovning «O'zbek antalogiyasi, Oygul Bilan Baxtiyor» kitobiga I.Ikromovning o'zbek lirikasi, M.Shichirovskiyning «Ming bir kecha» kitobiga ishlangan bezaklari kitob grafika san'atining amalga tanitdi. Ularning an'analari davom ettirib, K.Basharov dastgohli va kitob grafikasi sohasini ko'plab bezaklar yaratib samarali ijod qilib kelmoqda. Uning o'zbek xalq ertaklariga ishlangan bezaklari maqtovg'a sazovor. Keyingi paytda T.Muhammedov, A.Siglesev, A.G'ulomov, M.Karagarov, I.Vohidov kabi iste'dodli grafika san'ati rassomlari o'zlariga xos usuldagi

sermazmun ijodlari bilan o'zbek kitob grafikasi rivojlanishiga o'z xissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Bezak san'atini asosiy qonun qoidalari o'rganishda albatta kitob garfikasi namunalarining mualliflari V.Qaydalov, M.Kagarov, T.Muhammedovlar bilan birga rus grafika rassomlari I.Bilibin, Ye.Kibrig, D.Shimarenka, D.Bistiy asarlariga murojaat qilish mumkin. Xulosa qilib shuni aytish kerakki ko'p yillik ijod va tajriba natijasida shakllangan kitob grafikasidagi kompozitsiya bezagini qonun va qoidalari ko'plab rassomlar tomonidan tan olinib o'z ijodlarida qo'llab kelmoqda.

2.2. “7-sinf tasviriy san’at darslarida Badiiy asarga illyustrasiya bajarish”da tasvirlash uslubiyotini o’qitishning yangi pedagogik texnologiyalar orqali yoritilishi.

(Darsning bir soatli ishlanmasi)

Ma'lumki, har bir o'qituvchi darsni yuqori va talablar darajasida tashkil etishi uchun avvalo unga avvaldan puxta tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi lozim. Bu tayyorgarlik dars tuzilishi va uning ishlanmasini (senariyasini) ishlab chiqishdan iborat.

Bu ikki qismdan iborat bo'lgan tayyorgarlik o'qituvchi faoliyatida dars rejasi deb yuritiladi. Ya'ni:

1) Dars tuzilishi.

2) Dars ishlanmasi.

—Darsning tuzilishi quyidagi qismlardan tashkil topadi:

—Tashkiliy qism. (3 daqiqa)

—Avvalgi darsda o'tilgan materiallarni qaytarish va mustahkamlash.(5daqiqa)

—Yangi mavzuning bayoni va o'quvchilarning darsdagi vazifalari.

—(10 daqiqa)

—O'quvchilarning darsdagi mustaqil ishlari. (20 daqiqa)

—Darsda o'tilganlarni mustahkamlash. (5daqiqa)

Uyga vazifa berish. (2daqiqa)

Dars rejasining bu tarkibiy qismlari mashg'ulot turiga qarab (qo'yilmaga qarab rasm ishlash, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari) ularning o'rnilar almashishi mumkin. Masalan, uy vazifasini tekshirishni o'qituvchi darsning boshlang'ich qismida emas, balki dars jarayonida yoki darsdan keyin yoki uyda bajarishi mumkin. Ayrim mashg'ulotlarda o'quvchilarning mustaqil ishlari bo'lmasligi ham mumkin. U o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligida nazariy yoki amaliy ishlardan iborat bo'ladi.

Dars ishlanmasi quyidagi qismlardan tashkil topadi:

1. Darsning mavzusi.
2. Darsning vazifalari (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi)
3. Darsning jihozlanishi. Bu qismda dars uchun zarur bo'lgan barcha o'quv qurollari va jihozlar, natyurmort uchun tuzilgan qo'yilma hamda ko'rgazmali qurollar aks ettiriladi.
4. Darsning mazmuni. Bu qismda o'qituvchining sinfga kirishidan boshlab undan chiqib ketguncha bo'lgan vaqtda dars jarayonida bolalarga qanday bilimlar berishi, qanday savollar berishi va boshqalar to'liq bayon etiladi.
5. O'tilganlarni mustahkamlash. Bu qismda bolalar tomonidan berilgan bilim va malakalar qanchalik darajada o'zlashtirishini aniqlash yo'llari va metodlari bayon etiladi.

Uyga topshiriq beriladi.

Quyida "Badiiy asarga illyustrasiya bajarish"ni tasvirlash metodikasi yordamida taxminiy dars ishlanmasini ko'rsatib o'tamiz.(1-ilova)

Endi 7-sinflarda tasviriy san'at darsida "Badiiy asarga illyustrasiya bajarish"ni tasvirlash uchun ishlangan texnologik xaritani ko'rib chiqamiz.

“Tasviriy san'at” fanining **“Badiiy asarga illyustrasiya bajarish”** metodikasi”
mavzusi bo'yicha darsning
TEKNOLOGIK XARITASI

O'quv fani,	O'quv rejasidagi o'quv mashg'ulot mavzusi	O'qituvchi ismi sharifi	Sinf, o'quvchilar soni
Tasviriy san'at	“Badiiy asarga “ illyustrasiya bajarish”	Shodieva Mohira	7-sinf, 20 nafar

O'quv mashg'ulot mavzusi	““Badiiy asarga illyustrasiya bajarish”
Mavzu rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Kitob grafikasi haqida tushuncha. 2. Tasviriy san'atning grafika turida ijod qilgan rassomlar bilan tanishtirish. 3. Kitob grafikasi haqida umumiy ma'lumot berish. 4. Badiiy asarga illyustrasiya bajarish“da amaliy bilimlar berish. 5. “Badiiy asarga illyustrasiya bajarish“ning maqsadlar taksonomiyasi.
Asosiy tushuncha va terminlar	Tasviriy san'at, natyurmort, pastonovka, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, qalamtasvir, rangtasvir, ta'lim-tarbiya.
Maqsad, vazifalar	<p>Mavzuning maqsadi ta'lim oluvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida natyurmort janrining ilmiy-nazariy asosini, Badiiy asarga illyustrasiya bajarishdan tuzilgan natyurmortni tasvirlash” orqali o'quvchilarda amaliy - ijodiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'qitish jarayoniga texnologik yondashish mohiyatini ochish, pedagogik maqsadlarni belgilash texnologiyasini etkazish hamda to'liq o'zlashtirish metodikasiga asoslangan ilm orqali ta'lim olish texnologiyasini shakllantirishdan iboratdir.</p> <p>Asosiy vazifalari quyidagilarni yoritishdan iboratdir:</p> <ul style="list-style-type: none"> –grafika haqida o'quvchilarda tushuncha hosil qilishini; –inson hayotida afsona va rivoyatlar asosida ishlangan illyustrasiyalarning mohiyatini; – illyustrasiyalarning xususiyatlarini;

	<p>– grafika turlarini;</p> <p>–pedagogik maqsadlarni belgilash texnologiyasini;</p> <p>– ta'lim maqsadlarini shakllantirish yo'llarini;</p> <p>– pedagogik maqsadlar taksonomiyasini.</p>
O'quv jarayonining mazmuni	<p>Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asosi, o'qitish jarayoniga texnologik yondashish mohiyati, borliqqa majmua sifatida yondashuv, majmua yondashuv tamoyillari, pedagogik maqsadlarni belgilash texnologiyasi, va ta'lim maqsadlarini shakllantirish yo'llarini ko'rsatib beriladi.</p> <p>To'liq o'zlashtirish metodikasiga asoslangan nutqiy, ko'rgazmali, amaliy va o'qitish metodlari orqali ta'lim olish texnologiyasini shakllantirishdan iboratdir</p>
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>Metodi: "Klasster", "Aqliy hujum", amaliy-ijodiy metodlari.</p> <p>Shakli: nazariy - amaliy, savol-javob.</p> <p>Vositasi: nazariy bilimlarni berishda kompyuter texnikasi, slaydlar, multimedia vositalaridan foydalaniladi. Fanni o'zlashtirishda darslik, konspekt matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stend va krossvordlardan foydalaniladi.</p> <p>Amaliy-ijodiy bilimlar berishda natyurmort uchun tuzilgan badiiy asarga illyustrasiya bajarishdan tashkil topgan pastonovkasi va turli eskiz chizmalardan foydalaniladi.</p> <p>Usuli: chizma, diagrammalar, og'zaki va amaliy topshiriklar</p> <p>Nazorat: test va og'zaki savol-javob, suhbat</p> <p>Baholash: reyting tizimida</p>
Tavsiya etiladigan adabiyotlar	<ol style="list-style-type: none"> 1.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi G`G`Barkamol avlod — Uzbekiston taraqqiyotining poydevori.—Toshkent: Shark., 1997. 2.Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limni kontseptsiyasi. — Toshkent, 1995. 3.Tasviriy san'at. G`G`"Umumiy urta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. — Toshkent: Sharq, 1999. 4.Azimova B. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1984. 5.Bakushinskiy A.V. Xudojestvennoe tvorchestvo i vospitanie. Issledovaniya i stati. —Moskva: Sov. xudojnik, 1981. <p>b.Boymetov B, Tolipov N. Maktabda tasviriy</p>

	<p>san'at tugaragi. —Toshkent, 1995.</p> <p>7. Bulatov S. Amaliy san'at qisqacha lugati. — Toshkent: XBM, 1992.</p> <p>8. Bulatov S. Uzbek xalq amaliy bezak san'ati. —Toshkent: Mexnat, 1994.</p> <p>9. E. Valiulina N. Ruzi Choriyev. —Toshkent: G'ofur Gulom, 1983.</p> <p>10. Yu. Zoxidov P. Sh. Me'mor olami. — Toshkent: XBM, 1996</p> <p>11. Zamechatelno`e polotna. —Leningrad: Xudojnik RSFSR, 1962.</p> <p>12. Karimov X. U. Tansikboev. —Toshkent: Yosh gvardiya, 1978.</p> <p>13. Kilpe T. L. Osnovo` arxitekturo`. — Moskva: Vo`sshaya shkola, 1984.</p> <p>14. Komenskiy A. Velikaya didaktika. Izbr. ped. soch. —Moskva: Uchpedgiz, 1995.</p> <p>15. Kondaxchan E. Metodika prepodovaniya risunka v sredney shkole. —Moskva: Iskusstvo, 1951.</p> <p>16. Krukovskaya S. M. Iskandar Ikromov. — Toshkent: G'ofur Gulom, 1967.</p> <p>17. Kuzin V. S. Psixologiya. —Moskva: Vo`sshaya shkola, 1982.</p> <p>18. Kuzin V. S. Osnovo` obucheniya izobrazitelnomu iskusstvu v shkole. — Moskva: Prosvehenie, 1977.</p> <p>19. Leonardo da Vinchi. Kniga o` jivopisi. Moskva: Izogiz, 1934.</p> <p>20. Nabiev M. Rangshunoslik. — Toshkent: O`qituvchi, 1975.</p> <p>21. Nikiforov B. M. Pavel Petrovich Benkov. — Moskva: Sov. xudojnik, 1967.</p> <p>22. Nikonorova N. M. Naglyadno`e posobiya i oborudovaniya dlya zanyatiy izobrazitelno`m iskusstvom. — Moskva: Prosvehenie. 1991.</p>	
Kutiladigan natijalar:	O`qituvchi Belgilangan vaqtda juda ko`p axborotlarni berishga, ish jarayonida charchamasdan darsga ijodiy yondoshishga erishadi.	Ta'lim oluvchi Mavzuni yuqori darajada o`zlashtirishga, tegishli tahliliy usullarni o`rganishga muvaffaq bo`ladi va mustaqil ishlashga tegishli topshiriqlar oladi
Kelgusi rejalar (tahlil o`zgarishlar)	Interaktiv usullarda dars o`tishga ko`nikma hosil qilib boradi	Mustaqil ishlash jarayonida tegishli topshiriqlar bajarish ko`nikmasini egallab boradi

“Tasviriy san'at” fanining “Badiiy asarga illyustrasiya bajarish” mavzusi bo'yicha darsning

Pedagogik faoliyat loyihasi

MASHG'ULOT BOSQICHLARI	O'QITUVCHI FAOLIYATI	TA'LIM OLUVCHI FAOLIYA
1- bosqich	Ta'lim oluvchilarni “Badiiy asarga illyustrasiya bajarish” ni tasvirlash mavzusi bilan tanishtirib, uning maqsadi, kutiladigan natija va baholash mezonlari va mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtirish.	Mashg'ulot mavzusi, maqsadi, borishi va unda bajariladigan topshiriqlarni anglaydilar
2-bosqich Ta'lim oluvchilar bilimlarini aniqlash	Darslarni kuzatish va tahlil qilish bo'yicha ta'lim oluvchilarning fikrlarni aniqlaydi (Klasster va aqliy hujum).	Mavzu bo'yicha berilgan savollarga o'qituvchi bilan hamkorlikda javob beradilar
	Yangi mavzuni qisqacha ma'ruza qiladi	Ma'ruza tinglaydilar va kerakli ma'lumotlarni yozadilar.
	Guruhlarini 2 ga ajratib oladi, har bir guruh ishtirokchisini raqamlab chiqadi, baholash mezonlarini e'lon qiladi. Kichik guruhlariga topshiriq beradi: 1- guruh – Tasviriy san'atning grafika turida ijod qilgan o'zbek rassomlari ro'yhatini krossvordda echishga, 2-guruh didaktik topshiriq ya'ni savollarga javob berish bo'yicha tayyorgarlik ko'rishlarini aytadi, guruhlar tayyorgarligi uchun qog'oz, marker, ruchka skotch chizg'ich qalamlar tayyor qiladi.	Bajariladigan o'quv topshiriqlari yuzasidan ko'rsatmalarni anglaydi. Har bir guruh o'z topshiriqlarini belgilaydi, baholash mezonlarini yozib oladi
	Kichik guruhlar ishini nazorat qiladi, zarur bo'lsa yordam beradi	Har bir guruh ishtirokchilari berilgan topshiriq turi bo'yicha «mutaxassis» darajasiga etish uchun tayyorgarlik

		ko'radilar
3-bosqich Ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish	Bajariladigan topshiriqlar bilan ta'lim oluvchilarni tanishtirish (har bir guruh ixtiyoriy topshiriq bo'yicha mavzu, mavzu maqsadi, mavzudan kutiladigan natijalar, o'quvchilarni baholash mezonlari, darsning mantiqiy struktura sxemasi va darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish). Ta'lim oluvchilar ishini kuzatadi, tushunmovchilik bo'lsa ko'maklashadi.	Topshiriq yuzasidan ko'rsatmalarni anglaydi. Har bir kichik guruh ixtiyoriy topshiriq tanlaydi, ushbu mavzu maqsadi, mavzudan kutiladigan natijalari yaxshi ko'rsatkichlarga ega bo'lishga tayyorgarlik ko'radilar.
4-bosqich Bajarilgan ishlarni baholash	Kichik guruhlar ishtirokini kuzatadi, baholaydi, bajarilgan ishlarning yutuq va kamchilik tomonlarini tahlil qiladi	Har bir kichik guruh o'z bilimlari bilan ishtirok etadi. Qolgan guruhlar belgilangan mezonlar asosida to'ldirilmay qolgan joylarin to'ldiradilar hamda baholaydilar, ikkinchi guruh ishtirokchilariga savol beradilar.
5-bosqich Erishilgan natijalarni tahlil qilish va yakun yasash	Bajarilgan ishlarning yutuq va kamchilik tomonlarini tahlil qiladi. 1 va 2-bosqichlarda jamg'arilgan ballarni hisoblaydi, g'olib guruhni aniqlaydi, rahbatlantiradi, nazariy – amaliy hamda ijodiy mashg'ulotga yakun yasaydi	Bajarilgan ishlar jarayonida yo'l qo'yilgan xatoliklarni anglaydilar, mashg'ulot bo'yicha berilgan savollarga yoki topshiriqlarga javob beradilar

“Badiiy asarga illyustrasiya bajarish”ni tasvirlash uslubiyotini o’qitishning yangi pedagogik texnologiyalar orqali yoritilishi o’qituvchi pedagogik faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O’quvchilarning tasviriy san’atga bo’lgan qiziqishlarini oshirishda buyuk rassomlarning tarjimai hollari, ularning hayotidagi qiziqarli voqealardan so’zlab berish ham foydalidir. Hayoti qiziqarli rassomlar qatoriga Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Rembrant, Rubens, ILevitan, Chaxmarov, O’.Tansiqboyev va boshqalarni kiritish mumkin.

Yangi mavzuning bayoni

Tasviriy san’atning nazariy asoslari bilan tanishish har bir mutaxassis uchun nihoyatda zarur. «Kompozitsiya» atamasi lotin tilidan olingan bo’lib tuzilish, birlashish, bog’lanish ma’nolarini anglatadi. Asarning kompozitsion tuzilish ijodkor g’oyasini tomoshabinga aniq, oson, tez yetib borishiga xizmat qiladi.

Ilyustratsiyaning ahamiyati shundaki, birinchidan u kitobni bezakli, chiroyli va yoqimli bo’lishiga yordam bersa, ikkinchidan adabiy obrazni konkret jonli bo’lishiga o’quvchining yodida yaxshi saqlanib qolishiga yordam beradi.


Grafika lotincha so’z bo’lib, yozaman, rasm ishlayman degan ma’noni bildiradi. Grafikaning turlaridan biri gravyuradir.

Gravyura – frantsuzcha so’z bo’lib kesish ma’nosini bildiradi.


Uyga vazifa: o’zbek dostonlaridan o’qib unga illyustratsiya bajarib kelish.

Xulosa

- Adabiyotlardan mavzuga doir ma'lumotlar o'rganildi va tahlil qilindi.
- "Badiiy asarga iliyustrasiya bajarish"ni bilish, ijodkorlik asosida bajarish bo'yicha malaka-ko'nikmalar hosil qilib va ularni mustaqil ishlash uchun tavsfiyalar berildi ;
- o'quvchilarga miniatyura uslubida Badiiy asarga iliyustrasiya bajarishda o'rgatishning zamonaviy ta'lim texnologiyasi ishlab chiqildi.
- kitob grafikasida ishlangan iliyustrasiyalar badiiy tahlil qilinib va bosqichma bosqich ishlanib uslubiy ko'rsatmalar berildi.




1-ilova




2-ilova



3-ilova




4-ilova





6-ilova







26-расм



Adabiyotlar ro'yhati:

1. I.Karimov. «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch». Toshkent «Ma'naviyat» 2008 y.
2. R.Xasanov. «Tasviriy san'at asoslari». Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot uyi. 2009.
3. Umarov A., Axmedov M. Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati. «Toshkent». O'zTSMU 1998.
4. Karimov X. U.Tansiqboyev. Toshkent. Yosh gvardiya. 1978.
5. Karimov X. tabiat kuychisi (U.Tansikboev). Toshkent G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1970 y.
6. R.Xasanov. tasviriy san'atni o'qitish metodikasidan Amaliy mashg'ulotlar. Toshkent 2006.
7. Nabiyev M. rangshunoslik. Toshkent. O'qituvchi. 1995 y.
8. Boymetov. B., Tolipov N. Maktabda tasviriy san'at to'garagi. Toshkent 1995 yil.
9. Ko'zinov V. Pishologiya. Moskva. Vsshaya shkola. 1982 yil.
10. Tasviriy san'at urta maktab programmaliri (1-2-3- va 4-5 sinfdar) Toshkent o'qituvchi . 1968 yil.